

KONSTITUTSIYA - ERKIN HAYOT GAROVI

Matyakupova Farida Qadirbayevna

Qoraqalpog'iston Respublikasi Qo'ng'iro't tumani

Politexnikumi tarbiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola 30-apreldagi referendumda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy qonuniga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan eng muhim o‘zgarishlar va ularning ahamiyatiga bag‘ishlanadi. Shuningdek, Konstitutsiyaning suveren, demokratik va siyosiy huquqlari to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan. Mamlakatimizning rivojlanishida konstitutsiyaning o‘rni beqiyos.

Kalit so‘zlar: yangi konstitutsiya, huquq, erkinlik, referendum, vakolat, demokratiya, xavfsizlik

Abstract: This article is devoted to the most important changes introduced into the Constitution of the Republic of Uzbekistan in accordance with the constitutional law “On the Constitution of the Republic of Uzbekistan” adopted in the referendum on April 30 and their significance. Also, information is provided about the sovereign, democratic and political rights of the Constitution. The role of the constitution in the development of our country is incomparable

Key words: new constitution, law, freedom, referendum, authority, democracy, security

Аннотация: Данная статья посвящена наиболее важным изменениям, внесенным в Конституцию Республики Узбекистан в соответствии с конституционным законом «О Конституции Республики Узбекистан», принятым на референдуме 30 апреля, и их значению. Также представлена информация о суверенных, демократических и политических правах, закрепленных Конституцией. Роль конституции в развитии нашей страны несравненна.

Ключевые слова: новая конституция, закон, свобода, референдум, власть, демократия, безопасность.

KIRISH

Konstitutsiya lotincha “constitution” so‘zidan olingan bo‘lib, “tuzilish”, “o‘rnatish” ma’nolarini anglatadi. Qomus alohida yuridik xususiyatga ega yagona siyosiy-huquqiy hujjat sifatida shaxs, jamiyat va davlat o‘rtasidagi munosabatning asosiy tamoyilini o‘rnatadi, davlat hokimiyatining tuzilishi, sub’ektini, hokimiyatni amalga oshirish mexanizmini belgilaydi, jamiyat, inson, fuqarolarning davlat tomonidan qo‘riqlanadigan huquqi va erkinligini mustahkamlaydi.

Konstitutsiyaning mamlakat hayotidagi ahamiyatiga to'xtalar ekanmiz, avvalo, qomusimiz mohiyatini anglab yetish zarur. Har bir mamlakat huquq tizimida muhim ahamiyatga ega mazkur asosiy qonun oliy yuridik kuchga ega normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi. Muayyan davlatdagi hech bir qonun hujjati me'yori Qomusda qayd etilgan normaga zid kelishi mumkin emas. Konstitutsiyada davlat tuzilishi, shuningdek qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi organlar va sud hokimiyati vakolati, saylov tizimi, fuqaroning huquqi, burchi va majburiyati, jamiyat va shaxs, davlat va fuqaro o'rtasidagi munosabatga doir eng muhim jihatlar qat'iy belgilab qo'yiladi. 2023 - yilning 30 - aprel kuni xalqimiz hayotida o'ziga xos voqelikka ega bo'lgan kun sifatida tarixga muhrlandi. Sababi, ko'p millatli xalqimiz ko'nglidagi o'zgarish va islohotlarga zamin yaratib berishi bilan ahamiyatli bo'lgan yangi Konstitutsiya qabul qilindi. Ko'p ovoz bilan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingani unda xalqimizning Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha orzu-umidlari va intilishlari o'z aksini topganidan dalolat bermoqda. Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayoni mavjud huquqiy bazani, aynan Asosiy qonunimizni tubdan qayta ko'rib chiqish va takomillashtirishni hayotning o'zi taqozo etgani hech kimga sir emas.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 1-moddasida "O'zbekiston — ijtimoiy davlat" tamoyili mustahkamlanayotganligini alohida aytish zarur. Bosh qomusda davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlari, mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorini belgilashda insonning munosib yashashini ta'minlash hisobga olinishi, kafolatlangan tibbiy yordam, davlatning ta'limning barcha shakllariga g'amxo'rlik qilishi va o'qituvchi maqomi Konstitutsiya darajasida mustahkamlanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi negizida ishlab chiqilgan Harakatlar strategiyasi o'tgan qisqa muddatda davlat va jamiyatni rivojlantirishning mutlaqo yangi bosqichiga asos soldi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida keng ko'lamli, ulkan islohotlar olib borilyapti. Ushbu strategiyani amalga oshirishda Bosh Qomusimiz beqiyos ahamiyat kasb etadi. Sababi, Yangi O'zbekiston strategiyasining barcha yetti yo'nalishining amaliyotga joriy etilishi qomusimiz bilan chambarchas bog'liq. Xususan, strategiyaning ikkinchi yo'nalishi adolat va qonun ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ushbu jihat xalqchil davlat qurish, inson qadr-qimmatini ta'minlashning asosiy va zarur sharti sifatida aytib o'tilgan. Yangi O'zbekistonni barpo etishdek oliy maqsad sari qadam qo'yish jarayoni, albatta, Asosiy qonunimizni yangilash zarurligini taqozo etadi. Qonun, avvalo, Konstitutsiya demak. Prezidentimiz Konstitutsiyani qayta ishlab chiqishda bevosita xalq takliflarini e'tiborga olish, qonun loyihasini referendumga qo'yish orqali qabul qilish zarurligini bildirgan edi. Ma'lumki, davlatlarning doimiy do'stlikka asoslangan munosabatini rivojlantirish hamda jahon va mintaqa darajasida tinchlikni ta'minlash xalqaro munosabatlarning dolzarb masalalaridan sanaladi. Shu

ma'noda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz 18-moddasida O'zbekiston Respublikasi davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki va ko'p tomonlama munosabatlarni har taraflama rivojlantirishga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosatni amalga oshirishi qat'iy belgilanayotganligini ta'kidlash zarur. Qayd etish joizki, tinchliksevar siyosat deganda, davlatlarning siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy tizimlari va ularning rivojlanish darajasidan qat'i nazar, erkinlik, tenglik, adolat va insonning asosiy huquqlarini hurmat qilish, davlatlar va xalqlar o'rtasida tinchlikni mustahkamlash tushuniladi. Hech shubhasiz, referendum ko'p millatli buyuk xalqimizning birdamligi va hamjihatligi, suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat qurishga qat'iy qaror qilganligining ishonchli ifodasi bo'ldi.

Ta'kidlash o'rinli, o'tgan yillar davomida jamiyatimiz va unda ilgari surilayotgan g'oya va tashabbuslarda xalqimizning ishtiroki va ular tomonidan bildirilayotgan fikr-mulohazalarning ahamiyati har tomonlama ortdi. Buning natijasida jamiyatimizning ham islohot va o'zgarishlarga bo'lgan talabi kun sayin ortmoqda. Fuqarolar tomonidan bildirilgan fikr va mulohazalar asnosida qabul qilingan qonun va qarorlarimiz yanada takomillashtirilib, Konstitutsiyamizda belgilab qo'yilgan xalqchil moddalarga moslashtirilgan holda qabul qilinmoqda. Ammo bugun shiddat bilan o'zgarayotgan dunyoda ro'y berayotgan geosiyosiy vaziyatlar, eng avvalo, mamlakatimizni kelgusi besh yilda rivojlantirishga qaratilgan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi va unda belgilangan maqsadlarni amalga oshirish nafaqat qonunlarimizni mustahkamlashni, shu bilan birga, Bosh qomusimizda ham inson qadrini yuksaltirishga qaratilgan normalarni yanada takomillashtirib, bugungi zamon talablariga moslashtirishni taqozo etmoqda.

Davlatimiz rahbari yangilangan Konstitutsiyamiz "Xalq – qonunlarning yagona manbai va muallifidir" hamda "Barcha muhim qarorlar bevosita xalq bilan muloqot asosida va jamoatchilik fikrini hisobga olgan holda qabul qilinadi", degan tamoyillarga asoslangan holda ishlab chiqilsagina tom ma'noda xalqimiz xohish-irodasining ifodasi – haqiqiy xalq Konstitutsiyasi bo'lishini alohida ta'kidlagan edi. Shu bois, hech ikkilanmasdan aytish mumkinki, Yangi O'zbekistonning Yangi Konstitutsiyasi xalqimiz muallifligida yaratildi. Shu bilan bir qatorda, Konstitutsiyaviy islohotlar jarayonida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktda qayd etilgan tavsiyalar, YeXHT va boshqa xalqaro tuzilmalar doirasida jamiyatning barcha qatlamlari vakillarini davlat va jamiyat boshqaruvi jarayonlariga jalb etish bo'yicha qabul qilingan xalqaro va mintaqaviy huquqiy hujjatlar alohida hisobga olindi.

Yangilangan Konstitutsiya loyihasi rivojlangan davlatlardagi tahliliy markazlar va nufuzli tashkilotlar mutaxassislari tomonidan ham ekspertizadan o'tkazildi. Xorijda chop etilgan materiallar yetakchi tahliliy markazlar va tadqiqotchilik institutlari mustaqil O'zbekiston taraqqiyotini jiddiy qiziqish bilan kuzatayotgani, o'z elektron

minbarlarida yurtimizda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonni batafsil yoritib borayotganini ko'rsatdi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Respublikamizda so'nggi olti yil ichida yuz bergan keng ko'lamli islohotlarning muvaffaqiyatli natijasi xorijdagi rasmiy doiralar tomonidan ham keng e'tirof etilmoqda. Jamiyatimizni isloh qilish, demokratlashtirish, liberallashtirish va modernizatsiya qilishning chuqur o'ylangan uzoq muddatli dasturi davlat arboblari va siyosatchilar e'tiborini tortmoqda. Shuni alohida qayd etish lozim, yangi Konstitutsiya Yangi O'zbekiston strategiyasini amalga oshirishning siyosiy-huquqiy asoslarini yaratib, milliy davlatchilik taraqqiyotining tarixiy muhim bosqichida davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi. Davlatimiz rahbari mamlakatimiz taraqqiyotining burilish bosqichini belgilab, butun kuch va salohiyatimizni yagona ulug' maqsad – Yangi O'zbekistonni barpo etishga qaratamiz, deya ta'kidlagan edi. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi ushbu burilish bosqichining boshlanishi bo'lsa, konstitutsiyaviy islohot amalga oshirilishi tarixiy omil bo'ldi. Yangilangan Konstitutsiyada davlatimiz rahbari tomonidan “Yangi O'zbekiston – ijtimoiy davlat” tamoyili konstitutsiyaviy norma sifatida mustahkamlanishi taklif qilindi.

Birgina misol. Yangilangan Konstitutsiyamizning birinchi moddasida O'zbekiston – suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat deb, qat'iy belgilab qo'yilgani tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. Asosiy qonunda muhrlangan bu prinsiplar mamlakatimizning taraqqiyot yo'li va taqdirini, uning kelajagini belgilab bergan ushbu “beshta ustun” hech qachon o'zgartirilmassligi xalqimiz xohish-irodasining ifodasidir.

Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, har bir fuqaroning ongi va shuuridan joy olgan, uning huquq va erkinligini to'liq kafolatlagan Konstitutsiyamiz chinakam qomusga aylanishi kerak. Galdagi vazifa bugungi zamonga mos holatda bajarilishiga xizmat qiluvchi qonun va qarorlarning hayotiylikini ta'minlashdir. Bunda, o'z navbatida, qabul qilingan huquqiy hujjatlarimiz uchun bosh g'oya bo'lib xizmat qiluvchi Yangi Konstitutsiya yuridik zamin bo'lib xizmat qiladi.

Aytish joiz, Konstitutsiya loyihasini tayyorlashda xalqimizning fikri, takliflari ikki bosqichda o'rganildi. Birinchi bosqichda fuqarolarimizdan Konstitutsiya loyihasini shakllantirishga qaratilgan 60 mingdan ziyod taklif tushdi. Ikkinchi bosqichda Konstitutsiya loyihasi umumxalq muhokamasiga qo'yildi. 5 millionga yaqin aholi ommaviy axborot vositalari, internet tarmog'i orqali loyiha bilan tanishdi, 150 mingdan ziyod taklif va mulohaza aytili. Ayni paytda xalqaro-huquqiy hujjatlar, 190 dan ortiq davlat tajribasi o'rganildi, loyiha 6 xil ekspertizadan o'tkazildi. Yangi tahrirga asosan, O'zbekiston Konstitutsiyasidagi moddalar soni avvalgi 128 tadan 155 taga, normalar esa 275 tadan 434 taga oshyapti. 128 moddaning 91 tasiga konseptual o'zgarish kiritilmoqda. Umuman, konstitutsiya 65 foiz o'zgartirilyapti. Yangi

O'zbekistonda xalqimizning boy tajribasi va madaniy an'analariga asoslangan demokratiya o'rnatilmoqda, bunda aholining turli ijtimoiy guruhlar va qatlamlari manfaatlari hisobga olinadi. Zo'ravonlikka asoslangan eskicha ma'muriy-buyruqbozlik tizimi qoldiqlari nihoyat barham topdi, ko'ppartiyaviylik, g'oya va fikrlar xilma-xilligi odatiy holga aylanib bormoqda. Shunday qilib, ushbu konstitutsiyaviy normalar umume'tirof etilgan bir qator prinsiplarga ham to'la mos keladi. Xususan: birinchidan, «Konstitutsiya va qonunlar ustunligi» prinsipini olaylik. Davlat organlarining vakolatlari Prezident, parlament yoki Hukumatning har xil normativ-huquqiy hujjatlari bilan emas, balki faqat Konstitutsiya va qonunlar bilan belgilanadi. Davlat organlari Konstitutsiya va qonunlarga so'zsiz bo'ysunishi va o'z vakolatlarini shu huquqiy negizdagina amalga oshirishi shart. Bu qat'iy mezon qonun ustuvorligining ham muhim belgisi hisoblanadi;

ikkinchidan, jamiyatning biron-bir qismi, siyosiy partiya, jamoat birlashmasi, ijtimoiy harakat yoki alohida shaxs tomonidan «davlat hokimiyatining tortib olinishi»ga yo'l qo'yilmaydi;

uchinchidan, insonning siyosiy va boshqa huquq va erkinliklarini amalga oshirishi, davlat organlarining demokratik asosda shakllanishini ta'minlash, jamiyatning demokratik siyosiy tizimini shakllantirishga ko'maklashish hamda demokratik institutlar, fuqarolik jamiyati institutlari rolini kuchaytirish uchun qulay shart-sharoit yaratish kafolatlanadi.

Insonning konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir hamda ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas. Fuqarolar o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklari putur yetkazmasliklari shart.

Konstitutsiyaning yangi tahririda yuqoridagi ikkita norma deyarli o'zgarishsiz saqlab qolindi. Shu bilan birga, quyidagicha yangi norma qo'shildi: insonning huquq va erkinliklari faqat qonunga muvofiq va faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog'ligini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta'minlash maqsadida zarur bo'lgan doirada cheklanishi mumkin. Huquqlar cheklanishiga doir bu me'yorlar, yangi konstitutsiyaning boshqa bir moddasiga asosan, so'z erkinligi huquqiga ham tegishli. Ya'ni axborot izlash, olish va tarqatish huquqi faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholi sog'ligini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligi va tartibini ta'minlash, davlat sirlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirning oshkor etilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida cheklanishi mumkin. Ta'kidlash lozim, "ijtimoiy axloq" tushunchasi O'zbekiston qonunchiligiga hali kiritilmagan. Ushbu tushuncha hamda mazkur modda bo'yicha inson huquqlari "jamoat tartibini ta'minlash maqsadida" cheklanishi bo'yicha vakolatli

organning huquqiy sharhiga zarurat bor. Huquqlar ta'minlanishi bilan ijtimoiy axloq va jamoat tartibini saqlash o'rtasidagi oltin o'rtalik aniq belgilab qo'yilishi kerak. Shu bilan birga, yuqorida aytganimizdek, konstitutsiyaga binoan endilikda barcha noaniqliklar inson foydasiga hal etiladi. Shu o'rinda, namoyishlarga oid moddani ham eslatib o'tish o'rinli. Bu modda avvalgi holida, o'zgarishlarsiz saqlab qolindi: Fuqarolar o'z ijtimoiy faolliklarini O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga ega. Hokimiyat organlari faqat xavfsizlik nuqtai nazaridangina bunday tadbirlar o'tkazilishini to'xtatish yoki taqiqlash huquqiga ega.

XULOSA

Mamlakatning buguni va ertasiga befarq bo'lmagan fuqaro sifatida ayta olamanki, yangi Konstitutsiya, shuningdek, Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish, Bosh qomusimiz yangilanishida faol ishtirok etgan mehnatkash va ko'p millatli O'zbekiston xalqining ertangi farovon hayoti uchun mustahkam huquqiy asos, ishonchli kafolati bo'lishiga ishonaman. Bugun biz jonajon Vatanimizni rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga olib chiqishdek yuksak maqsad yo'lida keng qamrovli islohotlarni amalga oshirmoqdamiz. Ishonchim komil, ana shu olijanob maqsadlarga erishishda davlat organlari, keng jamoatchilik, barcha fuqarolarimiz o'zining munosib hissasini qo'shadi. Konstitutsiyaga amal qilish orqali jamiyatimizda qonun ustuvorligini ta'minlashni, har bir fuqaroning huquq va erkinliklarini himoya qilishni o'zimning nafaqat vazifam, eng avvalo, muqaddas burchim, deb hisoblayman. Hech shubhasiz, oradan yillar, asrlar o'tadi, lekin xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasi bo'lgan Konstitutsiyamiz yangi-yangi avlodlar uchun hayot qomusi, davrning o'zi o'rtaga qo'yadigan dolzarb muammolarni yechish yo'lida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. Hayotimiz qomusi – Konstitutsiyamiz mustaqillik davrida erishgan barcha yutuq va marralarimizning mustahkam huquqiy poydevori bo'lib kelayotganini hammamiz yaxshi bilamiz va yuksak qadrlaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 24.04.2003 yildagi 470-II-son// <https://www.lex.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahriri 30.04.2023)// <https://www.lex.uz>
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.:O'zbekiston, 2017.
4. 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasi// <https://www.lex.uz>
5. 2022 –2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi// <https://www.lex.uz>